

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## TUPROQLARNING SHO‘RLANISHI VA SHO‘RLANISH SABABLARI

*Aliyarova Dilrabo Fayzulla qizi*

*Termez davlat pedagogika instituti Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Email:  
[dilraboaliyarova0@gmail.com](mailto:dilraboaliyarova0@gmail.com)*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada tuproqlarning sho‘rlanishi, tuproqlarning birlamchi va ikkilamchi sho‘rlanishlari, sug‘orishning ahamiyati, tuproqlarning mavsumiy sho‘rlanishlari, shu jumladan, tuproqlarning past, o‘rta va ko‘p sho‘rlanishi tiplari, solodlar, sho‘rxoklar va sho‘rtob yerlar, sug‘oriladigan yerlar va yerlarning sho‘rlanish sabablari haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tuproqning sho‘rlanishi, birlamchi sho‘rlanish, ikkilamchi sho‘rlanish, sizot suvlari, sug‘orish, mineral tuzlar, solodlar, sho‘rxoklar, tog‘ jinslari, shortoblar, sug‘oriladigan yerlar, tektonik ko‘tarilishlar.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются засоление почв, первичное и вторичное засоление почв, важность орошения, сезонное засоление почв, в том числе низко-, средне- и высокозасоленные типы почв, солода, засоленные почвы, а также информация о солончатых землях, орошаемых землях и причинах засоления почв. Земли отданы.

**Ключевые слова:** Засоление почв, первичное засоление, вторичное засоление, просачивающиеся воды, орошение, минеральные соли, солода, солончаки, скалы, шурфы, орошаемые земли, тектонические подъемы.

**Annotation:** This article covers soil salinity, primary and secondary soil salinities, importance of irrigation, seasonal soil salinities, including low, medium and high salinity types of soils, malts, saline soils and information on brackish lands, irrigated lands, and the causes of salinity of lands are given.

**Key words:** Soil salinity, primary salinity, secondary salinity, seepage waters, irrigation, mineral salts, malts, salt marshes, rocks, shortholes, irrigated lands, tectonic vision climbs.

Tuproqning sho‘rlanishi- bu tuproq ustki qatlamlarida suvda oson eriydigan tuzlarning har xil miqdorda to‘planishidir. Bu holat, asosan, issiq iqlimli sahro va yarim sahro zonalari uchun xosdir.

Tuproqning sho‘rlanishi qanday yuzaga kelishiga qarab 2 turga ajratiladi.

1. **Birlamchi sho‘rlanish** - tuproq ona jinsining sho‘rlanganligidan va minerallashgan sizot suvlari ta‘sirida tabiiy ravishda hosil bo‘ladi.

2. **Ikkilamchi sho‘rlanish** - tuproq suv tartibining suniy ravishda buzilishidan yuzaga keladi. Yangi sug‘orish tartibining buzilishi ta‘sirida bu datlab sho‘rlangan tuproqlarda yuzaga keladi va mavsumiy, dog‘li va yoppasiga sho‘rlangan tuproqlarga ajratiladi. Tuproqning mavsumiy sho‘rlanishi - bu tuproq qatlamlarida tuzning o‘simliklar vegetatsiyasi davrida to‘planishidir. Bu sug‘orish ta‘sirida sizot suvlari sathining ko‘tarilishi va kapillyarlar orqali bug‘lanishi natijasida yuzaga keladi. Sho‘rlangan tuproqlar uzluksiz taqsimlanishga ega emas, lekin, asosiy tuproq turlari orasida alohida joylarda topilib, ikkinchisi bilan komplekslar hosil qiladi.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Ular barcha zonalarda keng tarqalgan, lekin, aksariyati Qozog‘iston, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Sibir, O‘rta va quyi Volga bo‘yi, Ukraina janubida sho‘rlangan tuproq hosil bo‘lishi yer osti suvlari va jinslarda tuzlarning to‘planishi va ularning tuproqlarda to‘planishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish bilan bog‘liq.

### Tuproqlarning sho‘rlanganlik darajasi bo‘yicha bo‘linishi.

1-jadval

T/R	Sho‘rlanganlik darajasi	0-100 smli qatlamlarda tuz miqdori. %	
		Quruq qoldiq	Xlor bo‘yicha
1	Sho‘rlanmagan	<0.3	<0.01
2	Kuchsiz sho‘rlangan	0.3-1.0	0.01-0.05
3	O‘rtacha sho‘rlangan	1.0- 2.0	0.05-0.10
4	Kuchli sho‘rlangan	2.0-3.0	0.10-0.15
5	Sho‘rxoklar	>3.0	>0.15

Tuproqlar sho‘rlanishi ekinlar hosilini keskin ravishda kamaytirib yuboradi. Kuchli sho‘rlangan yerlarda o‘simliklar butunlay o‘smay nobud bo‘ladi. Sho‘rlangan tuproqlarga o‘simliklar uchun zararli miqdorda mineral tuzlar mavjud bo‘lgan tuproqlar kiradi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining ezilishi, tuproqdagi tuz miqdori tuproq massasining **0.25 %** i dan ortiq bo‘lganida boshlanadi. Sho‘rlangan tuproqlar past, o‘rta va ko‘p sho‘rlangan, shuningdek, sho‘r, solodlarga bo‘linadi. Bir oz sho‘rlangan tuproqlarda suvda **0.25-0.4 %**, o‘rtacha sho‘rlanganda **0.4-0.7 %**, kuchli sho‘rlanganda esa **0.7-1 %** gacha tuzlar bo‘ladi.

Tuzlarning miqdori va tarkibiga ko‘ra, sho‘rlanishi ma‘lum chegaradan oshib ketganda tuproq paydo bo‘lishi sharoiti o‘zgaradi. Birinchi navbatda dastlabki tipga mansub bo‘lgan morfologik belgilar o‘zgaradi, o‘simlik halok bo‘ladi va mikrofloralarning tarkibi o‘zgaradi. Natijada alohida sho‘rxok tuproq tipi paydo bo‘ladi. Tuproqning ustki gorizontalida tuz eng ko‘p **2-3%** dan ortiq, ko‘pincha **10-30%** va undan ko‘p bo‘lsa, bunday tuproqlar tipik sho‘rxoklar deyiladi. Sho‘rxoklarning eng xarakterli belgisi ular tarkibida tuzlar miqdorining ko‘pligidir.

**MDH** hududida sho‘rlangan tuproqlar quruq dasht, chala cho‘llar va cho‘l zonalarida keng tarqalgan bo‘lib, shuningdek, dasht, o‘rmon-dasht va tayga-o‘rmon zonalarida ham uchraydi. Ularning maydoni 52.3 mln gektar yoki MDH hududida barcha tuproqlar maydonining **2.4%** ini tashkil etadi. Shulardan sho‘rtoblar maydoni 35 mln gektarga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, sho‘rxoklar, sho‘rtoblar va sho‘rtobli tuproqlarning umumiy maydoni 120 mln gektar yoki MDH hududining **5.4%** ini tashkil etadi.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

O‘zbekiston Respublikasi hududida sho‘rlangan tuproqlar **Sirdaryo, Jizzax, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyati, Qarshi cho‘li, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surhon-Sherobod dashti, Markaziy Farg‘ona** va boshqa joylarda keng tarqalgan. Jumladan, (1978) olimlarning aniqlashicha, O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlarida sho‘rlangan tuproqlar maydoni 1970.7 ming gektarni tashkil etgan. Sho‘rlanish natijasida har yili mo‘ljallangandan 500 ming tonnadan ortiq paxta, ko‘p miqdorda g‘alla, meva, sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kam olinadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi sho‘rlangan yerlar maydoni jami sug‘oriladigan yerlaridagining **64.4%** ini tashkil etadi.

Tuproqlardagi tuzlarning manbai va sho‘rlanish sabablari turli tumandir. Sho‘rlangan tuproqlar, shu jumladan, shoprxoklarning paydo bo‘lishi uchun 2 ta jarayon mavjud bo‘lishi kerak. Landshaftda erkin tuzlarning hosil bo‘lishi va ularning tuproqda to‘planishi. Tuzlar hosil bo‘lishining eng asosiy manbasi bu nurash ta‘sirida parchalanyotgan tog‘ jinslaridir. Nurash jarayonida birlamchi minerallarning parchalanishidan hosil bo‘lgan mahsulotlardan turli tuzlar, xloridlar, sulfatlar, karbonatlar hosil bo‘ladi.

Tuzlarning kationlari tarlibida **Ca, Na, K, Mg** lar ko‘pchilikni tashkil etadi. **Al, Fe**, mikroelementlar ham qisman uchraydi. Yer yuzasidan oqadigan va sizot suvlari bilan tuzlar oxirgi manzil hisoblangan okeanlar yoki quruqlikdagi berk havzalarga ko‘chiriladi va u yerlarda to‘planadi. Tektonik ko‘tarilishlar tufayli turli dengiz yotqiziqlari yer yuziga chiqib qolsa, landshaftlarning jadal sholrlanishi sodir bo‘ladi.

Sho‘rlangan tuproqlar shu jumladan sho‘rxoklarning kelib chiqish sabablari juda xilma-xil. Bulardan biri va eng muhimi quruq iqlim sharoitida tarqalgan va tarkibidagi turli xildagi tuzlar saqllovchi ona jinslardir. Ayniqsa dengiz cho‘kindilari tarzida sho‘r jinslarning turli sabablar bilan yer yuzasiga chiqib qolishi tuproq sho‘rlanishiga sabab buladi. Bunday tuzli cho‘kmalar Pomir, Hisor tog‘ tizmalari, Farg‘ona va Buxoro pastliklarida keng tarqalgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. J. X. Xo‘jayev "O‘simliklar fiziologiyasi" Toshkent-2004.
2. G.D.Mustaqimov "O‘simliklar fiziologiyasi va miktobiologiya asoslari" Toshkent-1995.
3. Sh. Xoliqulov, P. Uzoqov, I. Boboxo‘jayev "Tuproqshunoslik" Toshkent-2004.
4. G‘.A. Talipov "O‘zbekiston yer kadastr asoslari" Toshkent-2007.
5. Internet ma‘lumotlari. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)